

Markaziy va janubiy O'zbekiston umurtqasiz hayvonlari faunasini o'rganish maqsadida, Samarqand Davlat universiteti va Moskva Davlat universiteti hamkorligida o'tkazilgan ilmiy ekspeditsiyasi

HISOBOTI

2020-yil 24-apreldandan boshlab, 15-maygacha bo'lgan muddatda, Samarqand Davlat universiteti Zoologiya kafedrasini professor-o'qituvchilari va Moskva Davlat universiteti ilmiy xodimlari hamkorligida ilmiy ekspeditsiya o'tkazildi.

Ekspeditsiyani o'tkazishdan ko'zlangan maqsad O'zbekistonning markaziy va janubiy hududlarida tarqalgan umurtqasiz hayvonlarning xilma-xilligini o'rganish bo'lib, bunda bir nechta guruh hayvonlarga alohida e'tibor berildi. Xususan bo'g'imoyoqlilar tipining o'rgimchaksimonlar sinfiga kiruvchi chayonlar va falangalar, hasharotlar sinfining qattiqqanotlilar va ikkiqanotlilar turkumlariga hamda mollyusklar tipiga mansub hayvonlardan namunalar yig'ildi.

Ushbu ilmiy ekspeditsiya davomida quyidagi manzillarda tadqiqotlar olib borilib, namunalar yig'ildi:

Manzil	Maqsad	Kelish sanasi	Ketish sanasi
Surxondaryo viloyati Sherobod tumani	Surxondaryo viloyati xududidagi Kattaqum cho'li va uning atrofidagi qumliklardan hasharot namunalarini yig'ish.	26.04.20	30.04.20
Jayron ekomarkazi (Buxoro viloyati Kogon tumani)	Amu-Buxoro kanali qirg'oqlaridan hamda atrofdagi qumliklardan hasharot namunalarini yig'ish.	30.04.20	01.05.20
Surxon davlat qo'riqxonasi (Surxondaryo viloyati Sherobod tumani)	Surxon qo'riqxonasidan hasharot namunalarini yig'ish.	01.05.20	03.05.20

Buxoro viloyati Olot tumani	Dengizko'l platosidan hasharot namunalarini yig'ish.	03.05.20	06.05.20
Nurota davlat qo'riqxonasi (Jizzax viloyati Forish tumani)	Nurota davlat qo'riqxonasidan hasharot namunalarini yig'ish.	06.05.20	10.05.20
Hisor davlat qo'riqxonasi (Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani)	Hisor davlat qo'riqxonasidan hasharot namunalarini yig'ish.	10.05.20	15.05.20

Ushbu ekspeditsiya natijasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Markaziy va janubiy O'zbekistonning bir qator cho'llaridan (Kattaqum cho'li, Dengizko'l platosi, Yakzakqu qumlari) hasharot namunalari yig'ildi;
- Markaziy va janubiy O'zbekistonning bir qator tog' hududlaridan (Hisor tizmasi, Ko'hitang tizmasi, Nurota tizmasi, Zarafshon tizmasi) hasharot namunalari yig'ildi;
- O'zbekistonning bir qator muhofazaga olingan hududlari (Surxon, Nurota, Hisor davlat qo'riqxonalari, Jayron ekomarkazi, Zarafshon milliy tabiat bog'i) entomofaunalarining zamonaviy xolati o'rganildi;
- SamDu Zoologiya kafedrasi qoshidagi entomologic kolleksiya fondi 2000 dan ortiq namunadagi hasharotlar bilan boyitildi;
- Hozirgacha O'zbekiston hududida qayd etilmagan turlar aniqlandi;
- O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan bir qator hasharotlar yangi nuqtalarda qayd etildi.

Bundan tashqari ilmiy ekspeditsiya davomida O'zbekistondagi bir qator hududlar entomofaunasining kelgusida o'rganilish istiqbollari hamda yangi ekspeditsiyalar tashkil etish imkoniyatlari muhokama etildi.

Ilmiy ekspeditsiya rahbari:

Rahimov M.R.